

PEDAGOGIK FAOLIYATNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Malikova Ozoda Rustam qizi

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy ish doirasida kasbiy faoliyatlarning muhim tarkibiy qismi hisoblangan faoliyatni tashkil etish uni takomillashtirish, pedagogik faoliyatning asosiy xususiyatlarini, turlarini, qobiliyatlarini tahlil qilib chiqamiz.*

Kalit soʻzlar; *pedagogik faoliyat, mehnat mahorati, insonparvarlik, jamoaviylik, ijodiylik, pedagogik faoliyat maqsadi.*

Аннотация: *В рамках данной научной работы мы проанализируем основные характеристики, виды и способности педагогической деятельности, которая считается важной составляющей профессиональной деятельности. Ключевые слова; Педагогическая деятельность, трудовые качества, гуманизм, коллективная работа, творчество, цель педагогической деятельности.*

Annotation: *Within the framework of this scientific work, we will analyze the main features, types, and abilities of pedagogical activity, organizing and improving it, which is considered an important component of professional activities.*

Keywords; *pedagogical activity labor skills, humanity, teamwork, creativity, goal of pedagogical activity.*

Kirish: Pedagogik faoliyat, yaxlit olgan bevosita oʻqituvchilik, pedagogik kasbi juda qadimiy sanaladi. Unda avlodlar vorisiyilgining minglab yillik tajribalari mujassamlangan. Pedagoglik kasbining paydo boʻlishi obyektiv hodisadir. Pedagogika taʼlim tarbiya berishning nazariy ham amaliy koʻrinishdagi fandır.

Asosiy qism: Xalqning ijtimoiy madaniy bir butunligi yaxlit taraqqiyotning oʻzi, avlodlarning vorisiyiligi koʻp jihatdan pedagogik faoliyatga

bog‘liq. Pedagog bir paytning o‘zida ham shaxsning shakllanishi va qayta o‘zgarishiga ko‘maklashishi ham uning aqliy, hissiy va jismoniy rivojlanish shakllanish jarayonini boshqarish kerak. Pedagogik mehnatning obykti insonlar bo‘lib shakllanayotgan shaxs ma‘naviy turmushining nozik tomonlari aql, his, iroda, ishonch o‘z-o‘zini anglashdir. Pedagogik mahoratning xususiyatlari Pedagogik mahoratning yuqori darajasida barcha ishlarga yuqori sifat beriladi. Pedagogik mahoratni yuzaga keltirish oliy o‘quv yurtining butun hayotini pedagoglashtirish orqaligina muvaffaqiyatli hal etiladi. Pedagogik faoliyatning mazmun, mohiyatini ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilamiz. Pedagogika kasbining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki o‘z mohiyatiga ko‘ra insonparvarlik, jamoaviylik va ijodkorlik xususiyatlariga ega. Pedagogika kasbining insonparvarlik xususiyati uning inson tarbiyasiga shaxsni shakllantirish va uni rivojlantirish funksiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq holda bola tomonidan insoniyat yutuqlarini o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib shu orqali inson naslining davomiyligi, avlodlar vorisiyligi taminlanadi. Pedagogik faoliyatning jamoaviylik xususiyati deganda shuni tushunish lozimki ta‘lim oluvchiga faqat bir o‘qituvchi emas balki o‘qituvchilar jamoasi, shuningdek ota-onalar va boshqa guruhli va jamoaviy ta‘sir manbalari o‘z ahamiyatini ko‘rsatadi. Pedagog faoliyatining ijodiylik xususiyati uning belgilangan maqsadga erishish yo‘lida o‘z imkoniyatlarini qay darajada ishga moslashganligi bilan belgilanadi. Ko‘rinib turibdiki, pedagogik faoliyatning bugungi kundagi bosh va pirovard maqsadi har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash hisoblanib u dinamik o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ijodiy imkoniyatlarini to‘la ishga solib ham o‘z manfaatlari uchun ham davlat va jamiyat manfaatlari uchun maqsadni yuzaga chiqara di.

Umuman olganda hozirgi zamon pedagogikasi hamkorlik pedagogikasi hamkorlik pedagogikasi ta‘lim muassasalarida munosabatlarni demokratlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib bolani pedagogik jarayonning ishtirokchisi yordamchisiga aylantirib uning faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Pedagogik faoliyatda ijodkorlikka qobiliyat o‘qituvchining kasbiy

shakllanishi qanchalik tez ketayotganiga qarab ham belgilanadi. Kasbiy nuqtai nazardan shakllanadi bilimlar pedagog faoliyatida o‘z o‘zini tahlil etishga qurol bo‘ladi va o‘z- o‘zicha harakat qilish imkoniyatlarini aniqlaydi har tomonlama kengroq to‘la ochilishiga yordam beradi . Oliy o‘quv yurtlarida o‘tkaziladigan pedagogik bayramlar o‘qituvchilar kuni, pedagogik masalalarni teatrlashtirilgan holda yechish, topshiriqlar musobaqasi, „ Mehribon ko‘z “ konkursidagi chiqishlarni tahlil etish, pedagogik o‘qishlar. „ Talabalar javob bering “ kechasi, turli mashhur pedagoglar bilan uchrashuvlarni tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Mamlakatimizda pedagogik faoliyating o‘rni beqiyos hisoblanadi. Pedagogik faoliyat ham o‘zining bir nechta xususiyatlariga ega. Asosan yosh avlod bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Umuman olganda, hozirgi zamon pedagogikasi, hamkorlik pedagogikasi ta‘lim muassasalarida munosbatlarni demokratlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bola shaxsini pedagogik jarayonning ishtirokchisi va yordamchisiga aylantirib uning faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B.T.Jo‘rayev XX asr fan va madaniyatida yoshlar Xalqaro materiallar ilmiy ijodiy forum 2017-T.31
2. I.A.Karimov Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori T.Sharq 1997.
3. M.Xayrullayev, Sh.Qurbonov, S.Masudov, M.Qurbonov Pedagogika tarixi 2004-yil